

## BUXORO QO'LYOZMA VA TOSHBOSMA BAYOZLARI TAVSIFI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20003218>

**Fazliyeva Mohigul Xayriddinovna**

*ToshDO'TAU O'zbek filologiyasi fakulteti*

*Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik yo'nalishi mustaqil tadqiqotchisi*

[mohigulfazlieva@gmail.com](mailto:mohigulfazlieva@gmail.com) +998508551162

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada o'zbek xalqining sevimli janrlari to'plami sifatida nom qozongan bayozlar xususida, ayniqsa, Buxoro xonligida bitilgan va o'sha hudud shoir va ijodkorlarining she'rlarini qamrab olgan bayozlarning qo'lyozma hamda toshbosma nusxalari tasnifi va tavsifiy xususiyatlari haqida so'z yuritildi.

### **Kalit so'zlar**

Buxoro xonligi, bayozchilik, qo'lyozma nusxalar, toshbosma variantlar, xattot, unvon, hoshiya, jadval, kollofon, matn tili, yozuv.

## DESCRIPTION OF BUKHARA MANUSCRIPTS AND STONE COPIES

### **Annotation**

This article talks about the classification and descriptive features of manuscripts and stone copies of the verses, especially those finished in the Bukhara Khanate and covering the poems of the poets and creators of the region, which made a name for themselves as a collection of favorite genres of the Uzbek people.

### **Keywords**

Bukhara Khanate, bayazism, manuscript copies, typewritten variants, calligraphy, title, border, table, colophon, text language, writing.

## ОПИСАНИЕ БУХАРСКИХ РУКОПИСЕЙ И ТИПОГРАФСКИХ ИЗДАНИЙ БАЯЗОВ

### **Аннотация**

В этой статье говорилось о баязах, получивших название сборников любимых жанров узбекского народа, в частности о классификации и описательных особенностях рукописных и каменных копий баязах,

написанных в Бухарском ханстве и охватывающих стихи поэтов и творцов этого региона.

### Ключевые слова

Бухарское ханство, байозничество, рукописные копии, литографированные варианты, каллиграф, титул, рамка, таблица, коллофон, язык текста, надпись.

Har bir millatning o'z tarixini – o'zligini anglab yetishga asos bo'luvchi yo'l sifatida uning o'z adabiy merosini chuqur o'rganishi desak, adashmaymiz. Shu sababdan ham qadimdan kitobning qimmatbaho ashyo sifatida ko'z qorachig'idek asrab kelinishi uning turlicha narsalarga – daraxt po'stloqlari, sopol va mis buyumlar, hayvon terilariga bitilganligi sabab bo'lgan. Kitobning paydo bo'lish tarixiga yozuvning yaratilishi va taraqqiyoti ham uzviy bog'liq. Shu sababli qo'lda bir necha kun va oylar mobaynida qiynalib, mehnat qilib yozilgan kitoblar – qo'lyozma bitiklar asrlar oshsa hamki, o'z qadrini yo'qotmay, aksincha, noyob buyum sifatida qadrlanib kelinmoqda.

Bugungi kunda ko'plab qo'lyozma bayozlarning topilishi mumtoz adabiyotimiz namunalarini yanada chuqurroq o'rganishni, xonliklardagi adabiy hayotning ijtimoiy-siyosiy vaziyat bilan o'zaro bog'liqligi masalasini tadqiq qilishni talab qilmoqda. XIX asrning boshidan rivojlana boshlagan bayoz shu davrning ikkinchi yarmiga kelib taraqqiyot cho'qqisiga chiqdi. Natijada bayozchilik maktablari vujudga kelib, har bir hududning o'ziga xos uslubi paydo bo'ldi. Xo'sh, bayoz o'zi nima? Bayozchilik sohasi ustida mehnat qilgan olimlarimiz firklariga diqqat qilaylik. Olim Y.Is'hoqov "Bayozlar muayyan davrning mahsuli bo'lib, ularning uslubi va tarkibini izchil kuzatish ma'lum davrlardagi madaniy va adabiy harakat, yo'nalishlar va umuman, o'sha muhit namoyandalarining badiiy didi va intilishlarini aniqlashga imkoniyat yaratadi"[5], deb izohlagan bo'lsa, olima M.Hamidova shunday qaydlar bildiradi: "Bayoz turli davrda ijod qilgan, turli millatga mansub shoirlarning har xil janrda yaratgan she'rlar to'plamidir"[4]. Shuningdek, A.Erkinov "Bayoz – bu turli shoirlarning she'rlaridan iborat to'plamdir", [2]deb sharhlab o'tsa, olima Z.Shukurova yuqoridagi tushunchalarni umumlashtirgan holda "Bayoz – bir necha shoirlar ijodidan tarkib topgan she'riy to'plam bo'lib, rivojlanib, taraqqiy etishi natijasida international xususiyatga ega bo'lgan, vaqt, zamon va hududga ko'ra chegaralanmagan, qat'iy tartibga bo'ysundirilmagan she'riy to'plam", deb bayozning mukammal ta'rifini keltirib o'tadi[6;17].

Buxoro adabiy muhitining tarixi qadimgi davrlarga borib taqalsa-da, uning shakllanishi va rivojlanishining eng muhim bosqichlari VIII asrdan boshlanadi. Bu davrda Buxoro islom ilm-fan, she'riyat va adabiyotining markaziga aylanib, o'ziga xos adabiy muhitni shakllantirishning boshlanishi sifatida tarixga kirgan. Bu davrda shahar nafaqat diniy, balki ilmiy va madaniy markaz sifatida ham katta e'tiborga sazovor bo'ldi. Buxoro, fors madaniyatining bir qismi sifatida, fors tilida yozilgan she'riyat va adabiyotda katta yutuqlarga erishdi. Xususan, fors tili nafaqat adabiyotda, balki ilm-fan va falsafada ham keng tarqaldi[1]. Shahar fors adabiyotining rivojiga katta hissa qo'shdi va bu madaniyatni Sharqda tarqatishda muhim rol o'ynadi.

Quyida O'zFA Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti asosiy fondida saqlanayotgan Buxoro bayozlarining qo'lyozma nusxalarini tasniflab chiqamiz:

No	Keltirilgan shoirlar va bayoz nomi	Ko'chi ruvchisi	Ko'chirgan yili	Joyi	Beti	O'lchami	Necha yo'l	Tili	Yozuvi
11257	Muhimiy, Ibn Nahyos, Xijlat, Zahvoriy, Sobit, Oshiq		1253 1837	Buxoro	465	13/21	8-6	forsiy	Nastaliq
11267-2	Sobit, Karom, Tajoiy, Majlis, Surat va boshqa. "Bayozi radifi ash'or"	Fozil Buxoriy		Buxoro	47(1 29- 82)	15-22	15	forsiy	Nimshikasta
2279	"Bayozi mansur va manzum" Ahmad Maxdum, Muhandis, Donish	Donishning o'zi	1311 - 1307	Buxoro	138	17/21, 5	12,8, 20	forsiy	Nastaliq
2315	"Bayozi mansur va manzum"	Qozi Sharifjon Sadr Ziyo	1329	Buxoro	209	20,5/2 6.5	16,21	forsiy	Nastaliq
5331-1	"Bayozi manzum va mansur"	-	-	Buxoro	56	13/20	13	forsiy	Nastaliq
246	"Bayoze majmueye manzum va mansur" Jomiy, Mirmuhammad Sadiq, Heshmat	Mir Muhammad Sadiq	1312	Buxoro	212	17,5/2 1	16	forsiy	Nastaliq

1806	“Bayoze majmueye manzum va mansur”, Shohin	Mirzo Abdulka Rimbek, Mirzo Yusuf	1337	Buxoro	167	18/22, 5	20,16	forsiy	Nast a’liq
279	“Bayoze majmuayi ash’or”, Bedil, Iso, Somiy, Vozeh, Savdo	Iso Maxdum, Mirzo A’zam Somiy, Rahmatilloh Vozeh, Abdullaqodir Xoja Savdo		Buxoro	181	13/21	14,12,8	forsiy	Nast a’liq
5742	“Bayozi majmuiye ash’ori jadidi”	-	1332	Buxoro	122	13/21, 5	12,8	Forsiy	Nast a’liq
252-1	“Majmueyi bayozi manzum va mansur” Shohiy, Jomiy	Shohiy	1294	Buxoro	310	15,5/2 6.5	14,10	Forsiy	Nast a’liq
332-1	“Bayozi mufradot bo tazmine qofiye”	Mirzo Sodiq munshiy Jondoriy	-	Buxoro	121	14/22	15	Forsiy	Nast a’liq
II257	Muhif, ibn G’iyos, Xijlat, Zuhuriy, Soyib	Mir Sadridin Buxoriy	1253 /1837	Buxoro	465	13/21	6,8	Forsiy	Nast a’liq
4315	“Bayozi majmuiye ash’or”	Bedil, Fuzuliy, Hofiz, Jomiy, Navoiy, G’oziy, Shaydo, Ali, G’iyosiy,	-	Buxoro	277	14/22	8,10	Forsiy - O’zbekcha	Nast a’liq
2664	“Bayozi musavaddhe ramal va mutaferreqoti purishon”	Jomiy, Murmuhammad Sodiq bin Amir Muzaffar, Muhammad Sodiq		Buxoro	143	16/25	10,12	forsiy	Nast a’liq
229	Bayoz Devoni Shohin, Shamsiddin Maxdum, Shohin	Shohinni o’zi ko’chirgan	1311	Buxoro	103	12,5/20	8,12	forsiy	Nast a’liq
2663-III	Bayoz	Muhammad Sodiq Muzaffar	1252	Buxoro	211	15/26	21,16	forsiy	Nast a’liq

264	Bayoz- Muntaxabeh	Abyoti	Tamkin Buxoriy		Buxoro	190	13/20, 5	12,1 6	Forsiy - o'zbe kcha	Nast a'liq
-----	----------------------	--------	----------------	--	--------	-----	-------------	-----------	------------------------------	---------------

### Toshbosmalar

11417, 3187, 3188	Kogon	Noshiri Lutfulla Xoja	Yili 1910	Sahifa 285	Hajmi 23/14	Tili forsiy	Qaysi shoirlar kirgan Fuzuliy, Xoja, Hofiz, Bedil, Jomiy, Shohin	Izoh 144b dan gazaliyot devon bor
11123 3272 3273 3274	Buxoro Bayozi Rojiy	Muhammad idris Xoja Buxoriy	1907	483	22/13	forsiy	Bedil, Jomiy, Komil Buxoriy,Sido, G'urbatiy, Fig'iniy, Kamol,Anvari, Sa'diy, Lutfiy, Kamol Xo'jandiy,	
21215	Buxoro Bayozi Rojiy va boshqalar	Muhammad Idris Xoja Buxoriy	1315/ 1907	242	13,5/ 23	forsiy	Sido, Muhtaram, Hashmat, Layoniy	

Yuqoridagi jadval Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti asosiy fondida joylashgan Buxoroda ko'chirilgan bayozlar katalogi bo'lib, jami 18ta qo'lyozmadan iborat bo'lib, Hamid Sulaymon fondida Buxoro bayozlari esa faqat 1 dona - №2556 raqamli qo'lyozmadir. Toshbosmalar soni esa ancha kam bo'lib, 3ta toshbosmaning turli inventar raqamlari ostida juda ko'p nusxalari saqlanadi. Shuningdek, ularning deyarli barchasi forsiy tildadir. Chunki tarixdan ma'lumki, Buxoro amirligida boshqa xonliklarga nisbatan "zullisonayn"lik avjiga chiqqan bo'lib, ijodkorlar asosan, forsiy va turkiy, qisman arabiy tilda ijod qilishgan. Bu holni O'rta Osiyoning boshqa qismlari, xususan, Qo'qon, Xiva xonliklari, shuningdek, bir vaqtlar Movarounnahr va Xuroson tarkibiga kirgan yerlardagi ijodkorlar asarlarida ham ko'rish mumkin. Farqi shundaki, Xorazmda turkiyda ijod qilish ustun tursa, Buxoroda forsiyda ijod qilish kuchli bo'lgan.

Shuningdek, ko'pchilik bayoz nusxalari oxirgi qismida boshqa qo'lyozmalarda bo'lganidek, kollofon mavjud emasligi sababli, yozuvchi va ko'chiruvchi kotib nomi, ko'chirgan joylari qayd qilinmagan. Yuqoridagi barcha qo'lyozmalarni birlashtirib turuvchi umumiy xususiyati shundaki, ular asosan, fors-tojik tilda va nasta'liq xatida ko'chirilgan. Ulardan faqat ba'zilar nim shikasta xatida bitilgan. Shuningdek, hajmi, o'lchami va necha yo'lda yozilganlik xususiyatiga ko'ra, hammasi turli-tuman. Masalan, 11257, 1466, 11257 inventar raqamli qo'lyozmalar hajmi 300-400 varoqdan oshsa, 12637-1, 11267-2, 2775 inventar raqamli nusxalar esa 10-40 varoq orasidagi hajmga ega.

Barcha forsiy bayozlarni yakdil qiluvchi tomoni shundaki, unda mumtoz adabiyotning ko'zga ko'ringan vakillari ijodi doim uzluksiz ravishda ustunlik qiladi. Masalan, shoir Bedil, Fuzuliy, Jomiy she'rlari deyarli barcha bayozlarda mavjud. Shu bilan bir qatorda, adabiyotimizda juda kam tilga olinadigan, hatto nomi umuman ma'lum bo'lmagan ijodkorlar ham uchraydi. Masalan, Qovaniy, Muhtasham, Uhdiy, Soyib, Sado, Kamol, Jazbiy, Tolib, Mufiy kabilar shular jumlasidandir.

Quyida yuqoridagi bir necha qo'lyozmalarning tavsifiga diqqat qaratamiz:

**№2556.** 92 varoqdan iborat bo'lgan ushbu qo'lyozma juda kichik hajmda bo'lib, 10,5-17,5 o'lchovga ega. Buxoroda ko'chirilgan bu nusxa odatdagidek, forsiy tilda, nasta'liq yozuvida bitilgan. Har bir sahifa 8 qatordan tashkil topgan.

Qo'lyozmaning ichidan "23.VIII.82y, tavsifi berildi, M. Hamidova", deb yozilgan qog'oz chiqdi. Bu ma'lumot shuni ko'rsatadiki, 1982- yilda olim Hamidova ushbu nusxaga tavsif berib ishlagan ekanlar.

Kitob betlari sariq, ko'k va to'q ko'k ranglarda ishlov berilgan. Nusxa muqovasi qizil rangda, naqshlari mavjud. Nusxada hoshiya mavjud bo'lsa ham, poygir, jadval, unvonlar mavjud emas. Kollofon yo'qligi sababli, ko'chirilgan yilini glossda berilgan yozuv orqali hijriy 1298-yil (milodiy1880-1881-y), deb oldik.

Ijodkorlardan Sa'diy, Muhammad Sado, Yohu, Hofiz, Bedil va boshqa shoirlar ijodidan namunalar berilgan.

**№11257.** Qo'lyozma anchagina salmoqli hajmga ega bo'lib, juda yaxshi, toza saqlangan. Muqovasi jigarrangda, o'rtasida to'q qizil rangdagi matoda shamslar mavjud. Hatto ba'zi sahifa hoshiyalari qizil rangli gullar bilan bezatilgan (Masalan, "Basmala" keltirilgan ilk sahifa misol bo'ladi). Ammo shu bilan bir qatorda suv tegib namlangan va dog' bo'lib qolgan o'rinlar ham yo'q emas. Ba'zi varoqlarda poygir bo'lib, ba'zilarida mavjud emas. Bir, ikki va uch qatorli jadvallar ichida she'rlar bitilgan bo'lib, jadval va hoshiyalar qizil va yashil siyohda ajratilgan. Shuningdek, hoshiyalarda juda ko'plab izoh va qo'shimchalar, baytlar "gloss"

shaklida berilgan. Nusxa Qo‘qon shiqir qog‘ozida bitilgan. Qo‘lyozma 481 varoqdan tashkil topgan bo‘lib, bayozlar 1-betdan boshlanib, 465 betda yakunlanadi. Janr jihatdan xilma-xil bo‘lib, ruboiy, g‘azal, masnaviy, musaddas, fard, qit‘a kabilardan namunalar berilgan.

Ushbu qo‘lyozma Buxoroda hijriy 1253(milodiy 1837)-yilda ko‘chirilgan, ammo kim tomondan ko‘chirilganligi noma‘lum. Barcha matnlar tili forsiy bo‘lib, nasta‘liq yozuvida ko‘chirilgan. O‘lchami 13/21 shaklga ega bo‘lib, har beti 8 va 6 qatorlik she‘rlardan iborat. 448-betda she‘riy hikoyat ham berilgan bo‘lib, u bir necha betni o‘z ichiga oladi.

Qo‘lyozmada Bedil, Muhimiy, ibn Nahyos, Xijlat, Zahvar, Sobit, Shuur Oshiq, Maxmur, Fuzuliy, Baqiya, Jomiy, Xo‘ja Hofiz, Hazoqul Firdavsiy, Band, Xoja Kamol, Mavlono Tohir, Qosim Anvor kabi ijodkorlar she‘rlaridan namunalar berilgan.

**№11267.** Ushbu qo‘lyozma och yashil-sariq rangda bo‘lib, muqovada shamlari mavjud. Qo‘lyozma tashqi tarafdin o‘rtacha saqlangan, chunki betlari chiqib qo‘porilgan. Ammo ba‘zi betlari ko‘k, sariq, qizil va yashil ranglarda fon berilib, ko‘rkamlashtirilgan. “Bayozi radifi ash‘or” nomi bilan atalgan bu nusxa Fozil Buxoriy tomonidan Buxoroda fors tilida ko‘chirilgan. Yozuvi nim shikasta bo‘lganligi sababli juda xushxat. Bir va ikki qismli turli jadvallar ham mavjud bo‘lib, poygilar o‘z o‘rnida qo‘yilgan. She‘rlar qatori turlicha – 14 va 15 qatorli bo‘lib, ham eniga, ham bo‘yiga aralash tipda bitilgan. Qo‘lyozma 133 varoqdan iborat bo‘lib, 82-129 betlarda bayoz joylashgan. O‘lchovi 15/22 shaklga ega.

Nusxaga katta hoshiya ajratilgan bo‘lib, unda ko‘plab izohlar “gloss” shaklida berilib[8], qo‘shimchalar kiritilgan. Qo‘lyozma boshlanmasi xilma-xil baytlar bilan boshlangan. Masalan:

آسمان كیوت توركان را

بر سر آتش یحرب بنیان

Tarjimasi: “Ko‘k osmon turklarni harbiy yurish(urush)lar olovi oldiga boshladi”, parchasidan ko‘rinib turibdiki, tarixda turkiylar boshiga tushgan urush tashvishi haqida bayon qilinyapti. Muallifi qayd etilmagan ushbu bayt bayoz boshlanmasidan oldin qo‘lyozma ilk sahifalarida qayd etilganligi uchun kotib qalamiga mansub bo‘lishi mumkin.

Shundan so‘ng 6 -betdan “basmala” qayd qilingan unvon berilib, kitob matni boshlanadi. Lekin biz uchun asosiy bo‘lgan bayoz qismi 82-sahifadan boshlanadi. Unda Sobit, Mullo Karim, Tajjaliiy Hindiy, Nosirali, Badrshoh Muhammad, Bobo Soyib, Badr Hiloliiy, Xoja Vosig‘iy, Nodir, Mullo Varsafiy, Shavkat, Mushfiqiy, Surat, Malham Buxoriy kabi ijodkorlarning sherlaridan namunalar keltirilgan.

Bayozda asosan gʻazal janrida bitilgan ijod namunalari joylangan boʻlib, bu gʻazalning ahamiyati va oʻrni har vaqt ustun boʻlganligidan dalolat beradi.

**No2315.** Juda katta hajmga ega boʻlgan ushbu nusxa 20,5/26.5 oʻlchamga yetishgan. Muqovasi toʻq qizil rangda boʻlib, 209 varoqdan iborat. Qoʻlyozmaning ilk sahifasida kotib nomi tushirilgan muhr qayd qilingan. Juda yaxshi saqlanib, chiroyli husnixatda nastaʻliq xatida bitilgan. Boshqa Buxorodagi qoʻlyozmalar kabi tili forsiyda. Koʻchiruvchi kotib Qozi Sharifjon Sadr Ziyo juda xushxatlik bilan koʻchirgan.

Kitob boshida unvon va “basmala” mavjud boʻlmasa-da, ichki unvon va hoshiyalar oʻz oʻrniga ega. Ammo poygilar qoʻyilmagan. Qasida, masnaviy, ruboiy, gʻazal, shikoyatnoma, hikmat kabi janrlar oʻrin olgan.

Qoʻlyozmada Mirkalon, Mirsiddiq, Ayniy, Joʻrabek, Shohin, Majnuniy, Siyrat, Tolib, Nozim, Kamol va boshqa ijodkorlar ijodidan namunalar keltiriladi.

**No5331.** Ushbu qoʻlyozma juda yaxshi saqlangan boʻlib, 172 varoqdan iborat, ammo bundan 56 bet bayozdan tashkil topgan. Kitob muqovasi och qizil rangda boʻlib, sahifalar koʻk, yashil, qiziltob, jigarranglarda boʻyalgan. Bayozning baʻzi sahifalari- 15 dan 25-betgacha yozilmay boʻsh qoldirib ketilgan. Kitob Buxoroda koʻchirilgan boʻlib, kotib ismi nomaʻlum. Qatorlar 13, 16 koʻrinishda. Unvon mavjud boʻlmasa ham baʻzi oʻrinlarda ichki unvonlar koʻk rangli siyohda ajratilgan. Tili forsiy boʻlib, asosan nastaʻliq xatida, baʻzi oʻrinlarda nim shikasta xatida bitilgan(76-90-varoqlar). Baʻzi oʻrinlarda poygir boʻlib, baʻzilarida yoʻq. Jadval va kollofon mavjud emas.

Bayozda faqat bitta janr bilan chegaralanib qolmasdan, gʻazal, ruboiy, fard, masnaviylar mavjud. Ijodkorlardan Firdavsiy, Anvoriy, Bedil, Jomiy kabi shoirlar ijodidan rang- barang lavhalar keltirilgan.

**No2279.** Ushbu qoʻlyozma toʻq qizil rangda, muqovasi koʻp qalin boʻlmagan koʻrinishga ega. Ilk sahifasida ismlar tushirilgan katta dumaloq va kichik toʻrtburchak muhr bor. Hajmi 17/21,5 shaklga ega. Bayoz forsiy tilda, nastaʻliq xatida bitilgan.

“Bayozi mansur va manzum” deb atalgan ushbu bayoz nusxasi Buxoroda Ahmad Maxdum ismli kotib tomonidan hijriy 1311-1307-yillarda koʻchirilgan. Qoʻlyozma 138 varoqdan iborat boʻlib, muqovasidan koʻchib tushgan, yaʼni yaxshi saqlanmagan. Sartlar turli koʻrinishda, ham eniga, ham boʻyiga yozib tashlangan. 76-84 betlari boʻsh qolib ketgan, hech narsa qayd qilinmagan.

**No279.** Bu qoʻlyozma asosiy fondan joy olgan boʻlib, “Majmuayi ashʻoriy” deb ham nomlanadi. Kotiblar Ali Maxdum va Mirza Azim Shomiy tomonidan Buxoroda koʻchirilgan. Bayoz fors tilida nastaʻliq yozuvida bitilgan. Qoʻlyozma

muqovasi ko'k rangda, takiyasi to'q qizil rangda, jami 191 varoqdan iborat. Yozuv yo'llari xilma-xil, bir turdagi holga ega emas. Qo'lyozmaning ba'zi sahifalarida 2-3 qatorli jadval mavjud bo'lib, ammo asosiy qismi hoshiyasiz.

Kitob sahifalarida kotib ismi bitilgan muhrlar bir necha o'rinlarda uchrab turadi. Qo'lyozma bir tartibda, aniq shaklga ega emas, chunki oralarida gul yoki barglarning rasmini, turli raqamlarning pala-partish yozib tashlanganini ko'rishimiz mumkin. Kitobda kollofon mavjud emasligi sababli, ko'chirilgan yilini hijriy 1278 degan qaydlarga qarab orasidan topib oldik. Qo'lyozma forsiy tilda nasta'liq xatida bitilgan.

Bayozda Bedil, Ali, Shomiy, Voze, Savdo va boshqa ko'plab shoirlarning ijodlaridan namunalar keltirilgan.

**No229.** Buxoroda ko'chirilgan BSHIQF asosiy fondida saqlanayotgan bu qo'lyozma takiyasi sariq-jigarrang ko'rinishda bo'lib, u darajada yaxshi saqlanmagan. Romb shaklidagi naqshlar ichidagi rasm va yozuvlari o'chib ketgan. 114 varoqdan iborat bo'lib, asosan 14 yo'lda, shuningdek, 13 va 8 yo'lda yozilganlari ham bor, ham eniga va ham bo'yiga yozilgan. O'lchovi 12,5/ 20 sm bo'lib, Qo'qon shildiriq qog'ozida bitilgan. Takiyalar birlashtirib turuvchi chet qismida "Bayozi Shohin" deb bitilgan. Forsiy tildagi ushbu qo'lyozma hijriy 1311-yilda muallifning o'zi, ya'ni Mirzo Shohin taxallusli shoir tomonidan xushxatlik bilan nasta'liqda ko'chirilgan.

97 varoqdan 101-a varoqgacha betlari bo'sh qolgan. "Qasideyi Mullo Inoyat marhum", deb nomlangan qasidasi oxirida - 110 -betda keltirilgan, bundan xulosa qilish mumkinki, bayozda janrlar ketma-ketligi muhim sanalmagan. Ushbu bayoz qasida bilan boshlanib, keyin boshqa janrlar va oxirida yana qasida bilan yakun topgan.

Kitobda hoshiyalar mavjud bo'lib, ba'zilarida(glossda) izoh va qo'shimchalar kiritib o'tilgan. Ammo jadval, poygir va kitob so'ngida kollofon yo'q. Faqat madhiyalar va qasidalar kinga bag'ishlanganligi to'g'risidagi ichki unvonlar o'z o'rnida. Masalan: 4-a betda "Qasideyi qaysar oqile mushtamulli ali hamdisajoni", "Izofeyi hamde subhoni va ne'mati ..." (7-varoq), "Qasideyi g'urbati fi madhi sulton al-zamon" (8v), "Izofeyi madhi domi mulki" (9b), "Izofeyi madhi tole baqoye" (10v), "Izofeyi madhe zi ad davlati" (12v), "Vi izofeyi madhi xalilulloh saltanatiy" (14av), "Vi izofeyi madhi Abdualolliy" (14-b v), "Vi izofeyi madhi dom azamati" (15a v), "Vi izofeyi zulol" (15-b v) ....

Kitob janr jihatdan juda xilma-xil emas. Asosan qo'lyozmaning asosiy bosh qismida qasida va bag'ishlovlar o'rin olgan bo'lib, so'nrog'ida g'azal(90b) keladi. Qo'lyozmaning 2-betidan "Basmala" yozuvlari bo'lib, lekin naqshli unvon mavjud

emas. Kitob yozuvchining hasbi hol tarzidagi o'z ahvolini bayon qilishidan boshlangan:

شبی چه شب نه شب آن شب صیاح محشر بود  
مرا که آبله در پای دست برسر بود  
بسعر(بسمر) راه امل چون سپهر بر سر پا  
زدست آبله ام زیب ماه آخر بود  
کمینه رسته کنار بسایه اش طویی  
نمر زچشمه نوشش رحیق کوثر بود

Tarjimasi: Bu kecha oddiy kecha emasdi,  
Qiyomatdek qora bir tun edi.  
Men-chi — oyog'imda qanot bo'lsa-da,  
Sabr qilishga majbur edim.

Yo'lim besamar edi, boshim uzra osmondek,  
Hech natija bermasdi qilgan amalim.  
Ammo baribir oxirida,  
Oy misol bir go'zallik menga yor edi.

Yashirin bir yo'l bor edi uning tomon,  
Ko'zining lazzatidan esa,  
Go'yo Kavsar sharbatining yo'li ochiq edi[1;2].

**№11557.** Ushbu qo'lyozma to'q yashil rangda bo'lib, muqovasida qizil va sariq shams tasviri tushirilgan. Kitob yaxshi saqlangan bo'lib, faqatgina ba'zi sahifalari namlangan. Qo'lyozma 149 varoqdan tashkil topgan, yozuvlar qatori turlicha, ham eniga, ham bo'yiga, xilma-xil usulda bitilgan, oralarida ikki qatorli jadval ham mavjud. Bayoz boshlanmasida unvon va "Basmala" so'zlari mavjud emas. Ammo ichki unvon, hoshiya va poygirlar o'z o'rnida turibdi.

Bayozda Navoiy, Fuzuliy, Sido, Sayd, Rustam, Xoja kabi shoirlar ijodlaridan namunalar kiritilgan. O'lchami 15/25.5 hamli bo'lgan bu nusxa ham forscha va ham o'zbekchada nasta'liq xatida bitilgan.

**№12637.** Ushbu qo'lyozma o'rtacha kattalikda bo'lib, muqovasi ham juda oddiy, naqshlari mavjud emas. Jami 149 varoqdan iborat bo'lib, betlari nam tortib, yozuvlari bo'yalgan. Kitob boshida unvon hamda "basmala" yo'q. Ammo ichki unvonlar bor bo'lib, qizil siyohda ajratilgan. Poygirlar o'z joyida berilgan, ammo jadvallar va kollofon mavjud emas. Ushbu qo'lyozma to'plam hisoblanib, bayoz boshidan 12 varoqda joylashgan. Qo'lyozma Qo'qon shiqir qog'ozida ko'chirilgan bo'lib, yozuvlar orqa tomoniga o'tgan.

Bayozda Bedil, Mirzo Hasan, Shaydo, Nosirali, Jomiy, Hiloliy, G'iyosiy kabi shoirlar ijodlaridan namunalar keltirilgan. Kitob hajmi 12/19 bo'lib, forsiy tilda, nasta'liq xatida yozilgan.

**№11516.** Ushbu qo'lyozma juda kichik hajmda bo'lib, 53 varoqdan iborat. Qalin sariq qog'ozda bitilgan, o'lchami 11/17,5 shaklda, shuning uchun kichikina ko'rinishga ega. She'rlar 11 va 14 qatorli tarzda bitilgan. Qachon, kim tomondan bitilgani noma'lum, chunki betlari to'liq saqlanmagan. Muqovasi siyoh rangda bo'lib, sariq bo'rtma naqshlari mavjud. Ilk sahifasi va "basmala" bitilgan unvon mavjud emas. She'rlar ba'zi betlarda bo'yiga yozilgan bo'lsa, ba'zi o'rinlarda eniga bitilgan, shuningdek, jadvallar ham aralash holda berilgan. Qo'lyozma to'liq forsiy tilda, nim shikasta yozuvida bitilgan. Matn orasida hikoyatlar va ular ichida baytlar qayd qilingan. Ichki unvonlar mavjud bo'lib, qizil siyohda ajratib ko'rsatilgan. Qo'lyozmada hoshiya va poygirlar bor. Bayozda Mashrab, Sobit, Saloh, Nisoriy, Manzur, Nosirali kabi ijodkorlar ijodidan parchalar berilgan.

**№2663.** Muqovasi qora, takiyasi qizil bo'lgan ushbu qo'lyozma bayoz juda mustahkam va yaxshi saqlangan. 1-2-sahifalarida juda ko'plab qo'shimcha ma'lumotlar fors tilda bitilgan bo'lib, kitobda faqat bayoz emas, boshqa asarlar, ya'ni boshqa olim hamda tarixiy shaxslar bayoni ham kiritilgan. Yozuvlar shakllari xilma-xil, ham vertikal, ham gorizontal ko'rinishga ega. Poygir, hoshiya, jadval kabi qo'lyozma tarkibiy qismlari mavjud emas. 97 -betdan 107-sahifagacha hech narsa bitilmagan, bo'sh qoldirilgan. Dastlabki betlarida Muhammad Sodiq Muzaffar bitgan, degan jumalardan bilamizki, kotibi shu inson ekan. Jami 211 varoqdan iborat, kitobning o'lchami 15/26 shaklga ega. Shoirlardan Savdo, Navoiy, Rafiq, Komil, G'animat kabilarning she'rlaridan namuna berilgan. Kitob Buxoroda ko'chirilgan bo'lib, nasta'liq xatida bitilgan.

Umuman olganda, aynan Buxoroda ko'chirilgan qo'lyozma bayozlar soni umumiy bayozlar soniga nisbatan ozchilikni tashkil etadi. Chunki O'zFA SHIQFda saqlanayotgan bayozlar soni 400dan ortiq hisoblanib, asosiy qismini forsiy, o'zbekcha va arabcha nusxalar tashkil qiladi va Qo'qon, Xiva, Toshkent, Buxoro, Farg'ona kabi shaharlarda turli davrlarda ko'chirilgan.

Xulosa qiladigan bo'lsak, matnshunoslik va adabiy manbashunoslikda qo'lyozmalarning mavjud barcha nusxalarini yaxshilab o'rganish va ularni tasniflab tahlil qilish eng kerakli ish bo'lib, bu matnning asliyatini aniqlashga yordam beradi. Shuningdek, vaqt o'tgan sari o'sha arxitep nusxaning o'zida yuzaga kelgan turli holatlarning sababini o'rganishga qo'l keladi. Izlanuvchi matnning qadimiylik, butunlik, asos nusxa hamda qadim nusxalarini qiyoslash orqali aniqlab oladi hamda matnning butunligi va asl holatini tiklashga muvaffaq bo'ladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Axmatov A. Buxoro adabiy muhiti tarixiga chizgilar (XX asr boshlari). Til va adabiyot. Ilmiy-metodik elektron jurnal. – Toshkent. 2024-yil 4-son. – B.7-9. 4
2. Bayoz. Qo'lyozma. O'zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, Asosiy fond, Inv. №2556, №11257, №11267, №2325, №5331, №2279, №279, №11557, №12637, №11516.
3. Erkinov A. Qo'lyozma bayozlarga oid ayrim mulohazalar.//Oltin bitiglar. – Toshkent:2024, №2. 5-bet
4. Fazliyeva M. “Kalila va Dimna” qo'lyozma va toshbosma nusxalari tavsifi. – O'zA elektron jurnali 2024, 7-son(57)
5. Hamidova M. Qo'lyozma bayozlar – adabiy manba. – Toshkent: Fan,1981.15-bet
6. O'zbek adabiyoti tarixi masalalari. – Toshkent: Fan,1976. 100-bet
7. Shukurova Z. O'rta Osiyoda bayozchilik tarixi va taraqqiyoti.- T.: Noshir, 2024. 116 bet
8. Zohidov R. Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik asoslari. O'quv qo'llanma. – T.: Yashil yaproq nashr-matbaa uyi, 2023. 81-85betlar.
9. diss.natlib.uz
10. nodir.natlib.uz.
11. [www.google scholar.uz](http://www.google scholar.uz)
12. Ziyouz.com